

## O'SMIRLIK DAVRIDA KATTALAR BILAN IJTIMIOIY MUNOSABATLARNING NAMOYON BO'LISHI.

Odamboeva Mashkhura, Sultanova Nodira,  
Jumanazarov Lutfulla Odilbek o'g'li

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti talabaları

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7118129>

**Annotatsiya:** O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi.

**Kalit so'z:** O'smirlik, balog'at, psixologik yosh, sezgi, jismoniy, fizik.

### ПРОЯВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ СО ВЗРОСЛЫМИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ.

**Аннотация:** Подростковый возраст – это период перехода от детства к взрослой жизни, характеризующийся физиологическими и психологическими особенностями. На этом этапе у детей ускоряется физическое и психическое развитие, повышается их интерес к разным вещам в жизни, возрастает стремление к новому, формируется их характер, обогащается их духовный мир, обостряются конфликты.

**Ключевые слова:** Подростковый возраст, взросłość, психологический возраст, интуиция, физическое, телесное.

### MANIFESTATION OF SOCIAL RELATIONS WITH ADULTS DURING ADOLESCENCE.

**Abstract:** Adolescence is a period of transition from childhood to adulthood, characterized by physiological and psychological characteristics. At this stage, children's physical and mental development accelerates, their interest in various things in life increases, their desire for new things increases, their character is formed, their spiritual world is enriched, conflicts escalate.

**Key word:** Adolescence, adulthood, psychological age, intuition, physical, physical.

### KIRISH

O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarining paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu Yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. O'smirlik 10-11 Yoshlardan 14-15 Yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik Yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. **O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish** davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarining paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu Yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga karab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Og'iz bo'shlig'i va halqumdag'i o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu

o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘prok darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminrok bo‘lib qoladi, do‘rillarydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur’at bilan o‘sса ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur’ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning beso‘naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo‘pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Fiziologik o‘zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a’zolarning mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqidir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi. Ko‘krak qafasi ham gavdaning bo‘y o‘sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o‘smirlarning elkasi, ko‘kragi tor bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo‘g‘onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o‘smirda ba’zi qon bosimining ortishi ro‘y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O‘smirlilik Yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy etilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy etilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlilik davri «*o‘tish davri*», «*krizis davr*», «*qiyin davr*» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. CHunki, bu Yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni “*psixik rivojlanishdagi krizis*” deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlilik Yoshini ikki xil davrga - kichik o‘smirlilik davri va katta o‘smirlilik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini ”bola”lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta‘kidlamoqchidek bo‘ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta Yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinci bosqichda o‘smir endi o‘zining Yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini ulug‘lab, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlar ko‘prok qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O‘smirlilik davrida ichki erkinlikning

o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliv psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar.

### **MUHOKAMA**

*O'smirda katta Yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'limganda katta Yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish*, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondekk bo'lib ko'rindi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarning faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, mакtabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, qulq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqididan mahrum qilish mumkin bo'limgan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi.

### **XULOSA**

Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli

ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, Shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarini izlaymiz): Metodik qo'llanma. T., 1998.
2. G'oziev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.